



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING INNOVATSION BOSHQARUVI

Xurramova Ruxshona Qalandar qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim 2-kurs talabasi

Avezova Rohila Ruzimboyevna

Ilmiy rahbar: v.b dotsent

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘lim bosqichida innovatsion boshqaruvning mazmun-mohiyati, uning zarurati va o‘qituvchining boshqaruv faoliyatida tutgan o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar, zamonaviy metodikalar va o‘quv jarayonini samarali tashkil etish mexanizmlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Innovatsiya, boshlang‘ich ta‘lim, boshqaruv, pedagogik texnologiya, o‘quv muhiti, differensial yondashuv.*

Zamonaviy ta‘lim tizimi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida pedagogik jarayonlarda innovatsion yondashuvlarni talab etadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘limda o‘qituvchining boshqaruv salohiyati nafaqat bilim berish, balki bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va raqamli savodxonlikni shakllantirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, innovatsion boshqaruvni metodologik asoslash va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Innovatsion boshqaruv – bu an‘anaviy uslublardan farqli ravishda, o‘quv jarayonini zamonaviy ta‘lim texnologiyalari, interaktiv metodlar va yangi pedagogik yondashuvlar asosida tashkil qilish va boshqarish tizimidir. Ushbu yondashuv o‘qituvchidan quyidagi kompetensiyalarni talab qiladi:

strategik rejalashtirish;

muhitni tahlil qilish va innovatsion resurslarni boshqarish;

jamoaviy va individual o‘quv faoliyatini uyg‘unlashtirish.

pedagogik monitoring olib borish;

Yevropa pedagogik maktablarida faol qo‘llanilayotgan konstruktivistik yondashuv asosida o‘quvchi – bilimni passiv iste‘molchi emas, balki uning faol yaratuvchisiga aylantiriladi. Bu esa o‘qituvchining boshqaruv rolini yangicha mazmunda shakllantirishni taqozo etadi.





Ta'lim muhitini transformatsiya qilish – boshlang'ich sinfda innovatsion boshqaruv, avvalo, o'quv muhitining didaktik va psixologik jihatdan yangicha tashkil etilishini nazarda tutadi. O'quvchilarning yosh xususiyatlari va individual ehtiyojlari hisobga olingan holda, ta'lim muhiti quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

insonparvarlik (o'quvchining shaxsini hurmat qilish);

faollik (o'quvchini bilim izlovchi sifatida rag'batlantirish);

ochiqlik (o'qituvchi-o'quvchi-ota-ona hamkorligi);

innovatsiyaviylik (interaktiv vositalar, multimedia, gamifikatsiya elementlari).

Har bir bola noyobdir va o'zining bilim olish sur'ati, dunyoqarashi hamda qiziqishlari bilan ajralib turadi. Shu bois, o'qituvchi dars jarayonini quyidagicha boshqarishi lozim – kichik guruhlar bilan ishlash texnikasi; diagnostika asosida rejalashtirish; mustaqil o'rganishni rag'batlantirish (portfolio, loyiha ishlari); refleksiya va tahlilni darsning ajralmas qismi qilish. Bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan ta'lim tizimi boshlang'ich ta'lim bosqichiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki innovatsion muhitni boshqaruvchi shaxs sifatida maydonga chiqmoqda. Bu esa o'qituvchidan nafaqat pedagogik, balki liderlik va boshqaruv ko'nikmalarini ham talab qiladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat ta'lim beruvchi, balki sinfdagi innovatsion jarayonlarni boshqaruvchi liderdir. Uning zamonaviy texnologiyalar va metodik yondashuvlarni o'z faoliyatiga tatbiq etishi nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining innovatsion boshqaruvi bo'yicha ilmiy yondashuvlar asosida eng nufuzli pedagogik olimlar va ularning g'oyalari.

Lev Vygotsky madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi g'oyasini ilgari surgan olimdir. Vygotsky g'oyasiga ko'ra, bolaning bilim olish jarayoni individual emas, balki ijtimoiy jarayon. Ustoz, tengdoshlar, va atrof-muhit bolaning rivojlanishida markaziy o'rin egallaydi. O'qituvchi har bir o'quvchining ZPDsini aniqlab, uni ilgari suradigan topshiriqlar beradi. Konstruktiv baholash (masalan, og'zaki tahlil, muloqotli fikr almashish) yordamida sinf muhitini boshqaradi. Differensial ta'lim asosida sinfni turli darajadagi guruhlariga bo'lib, har bir bolaga mos yondashadi.

John Dewey - tajriba asosidagi (eksperimental) ta'lim nazariyasini ilgari surgan. Uning g'oyasiga ko'ra Dewey ta'limni jamiyatdagi faol ishtirokga tayyorlovchi jarayon deb hisoblagan. O'quvchilar bilimni tayyor shaklda emas, balki real hayotiy muammolarni hal qilish orqali olishi kerak. O'qituvchi sinfni "tajriba laboratoriyasi"ga aylantiradi. Darslarda loyihalar, rolli o'yinlar, muammo asosida





o‘rganish (problem-based learning) metodlaridan foydalaniladi. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga va ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirish orqali sinfdagi ishtirokni boshqaradi.

Howard Gardner esa ko‘p intellekt nazariyasini ishlab chiqadi. Gardnerning g‘oyasiga ko‘ra, odamlarning bilim olish uslubi turlicha. 8 xil intellekt turi mavjud (lingvistik, mantiqiy, musiqiy, kinestetik, vizual, tabiatshunos, shaxsiy, ijtimoiy). Har bir o‘quvchining dominant intellektini aniqlash va unga mos o‘qitish strategiyasini tanlashni aytadi. Vizual o‘quvchilar uchun rasm, diagramma; kinestetiklar uchun harakatli faoliyatlari; musiqani sevuvchilar uchun she‘r yoki musiqiy topshiriqlar. Darslarda turli yondashuvlarni uyg‘unlashtirib, har bir o‘quvchining faol ishtirokini boshqarish haqida aytib o‘tadi.

Ken Robinson Ijodiy ta‘lim nazariyasida Robinsonga ko‘ra, maktab tizimi bolalarning ijodini cheklaydi. Har bir bola o‘zining “element”i — qiziqish va iqtidor sohasini topishi kerak. O‘qituvchi sinfdagi ijodiy muhit yaratadi (she‘r yozish, san‘at, drama). Gamifikatsiya, tanlovlar, loyihalar orqali o‘quvchilarning qiziqishini boshqaradi. Standart yondashuvlar o‘rniga moslashuvchan metodlar qo‘llaniladi.

Abdulla Avloniy tarbiya orqali inson kamoloti nazariyasi haqida ma‘lumot berib o‘tadi. Avloniyning fikriga ko‘ra, haqiqiy o‘qituvchi ilmiy, vijdonli va tarbiyali shaxs bo‘lishi kerak. U ilm bilan bir qatorda axloqiy tarbiyani ustun qo‘ygan. O‘qituvchi har bir o‘quvchini nafaqat bilim, balki tarbiya orqali boshqaradi deydi. Darslarda milliy qadriyatlar, axloqiy masalalarni muhokama qilish, sahnalashtirish usullaridan foydalaniladi. Raqamli vositalar orqali ham milliy ruhdagi materiallarni tatbiq etadi (masalan: video lavhalar, ma‘naviyat platformalari). Bu besh olimning g‘oyalari asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi quyidagicha innovatsion boshqaruvni amalga oshiradi:

Robinson g‘oyasi asosida — ijodkorlikni rivojlantiruvchi sinf boshqaruvi;

Avloniy g‘oyasi asosida — ma‘naviy-axloqiy tarbiya orqali shaxsiy rivojlanadi.

Vygotsky g‘oyasi — har bir bola uchun shaxsiy yondashuv beradi.

Dewey g‘oyasi — faol va tajribaga asoslangan darslar beradi.

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining innovatsion boshqaruvi bo‘yicha ilmiy yondashuvlar asosida eng nufuzli pedagogik olimlar va ularning g‘oyalari ilgari suradi.

O‘zbekistonda innovatsion boshqaruv bo‘yicha ta‘lim siyosati ham yuqori darajaga ko‘tarilmoqda.





Prezident qarorlari (PQ-4310, PQ-3775): Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish, pedagog kadrlarni zamonaviy usullar asosida tayyorlash.

Ta'limda raqamlashtirish: Elektron kundaliklar, test platformalari (my.maktab.uz, edu.uz), UzEdu TV orqali o'quv materiallarining onlayn yetkazilishi.

"Ilg'or maktablar" loyihasi: Innovatsion dars dizayni, STEAM, CLIL, va tanqidiy fikrlash asosida boshqaruv modellarini joriy etish zarur.

Zamonaviy raqamli vositalar (ICT) yordamida boshqaruv bu:

Google Classroom Vazifalar, testlar va izohlarni boshqarish raqamli sinf muhitini yaratadi

Kahoot/ Quizizz Onlayn test va viktorinalar Baholashni interaktiv qiladi

Mentimeter / Padlet Fikr almashish va taqdimot Darsda har bir o'quvchining ovozi eshitish

Zoom / Teams Masofaviy darslar Interaktiv darslar tashkil etishga yordam beradi.

Innovatsion boshqaruvning psixologik jihatlari bu:

Emotsional intellekt: O'qituvchining hissiy holatni boshqarish ko'nikmasi, stressga chidamliligi muhim.

Motivatsion liderlik: O'qituvchi ilhomlantiruvchi, ijobiy ruhlantiruvchi bo'lishi kerak.

Refleksiya madaniyati: O'z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan saboq olish va takomillashtirish.

Ilg'or xorijiy tajribalar bu:

Finlandiya: Bolaga yo'naltirilgan ta'lim, sinflarda mustaqil tanlov imkoniyati, dars davomida emotsional qulaylik.

Singapur: Har bir darsda texnologik yechim, maqsadli baholash tizimi, o'qituvchiga doimiy trening.

Yaponiya: Kollektiv dars tahlili (Lesson Study), sinf ichida hamkorlik, tartib va javobgarlikni boshqarish.

O'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda diferensial yondashuv innovatsion boshqaruv samaradorligini oshiradi. Faoliyatga asoslangan metodlar (projekt, muammo yechish, gamifikatsiya) darsni boshqarishda eng samarali vositadir. Konstruktiv baholash orqali o'quvchilarning bilim olish motivatsiyasi barqaror boshqariladi. Ko'p intellekt nazariyasiga asoslangan dars dizayni har bir o'quvchining individual yondashuvini ta'minlaydi. Muloqotli





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

o'qitish usullari (fikrlar jangi, klaster, jamoaviy topshiriq) sinf boshqaruvini demokratiklashtiradi. Raqamli texnologiyalar dars jarayonida vaqtni tejaydi va interaktivlikni oshiradi. Masofaviy platformalar (Zoom, Google Classroom) yordamida ta'lim jarayonini mustaqil boshqarish imkoniyati paydo bo'ladi. Elektron baholash vositalari (Kahoot, Quizizz) darsda ishtirokchilarni rag'batlantirishda foydalidir. Dars materiallarini vizualizatsiya qilish (Canva, PowerPoint, Padlet) o'quvchilar faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Ta'limda sun'iy intellekt yordamida individual yondashuvlar kuchaymoqda (masalan, chat-botlar bilan o'rganish tizimlari. Innovatsion o'qituvchi — bu emotsional intellekti rivojlangan, o'zini tahlil qila oladigan shaxsdir. O'quvchilarning ruhiy holatini nazorat qilish dars muhitini boshqarishda muhimdir. Tarbiyaviy ishlarni texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish (masalan, ma'naviyat videolari) axloqiy muhitni boshqaradi. O'quvchilarning o'zaro hurmat, hamkorlik, va javobgarlik ko'nikmalari boshqaruvning barqarorligini ta'minlaydi. Refleksiya (fikir-mulohaza) madaniyati innovatsion sinfning ajralmas qismidir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi — nafaqat pedagog, balki sinf menejeri bo'lishi kerak. Loyihalash, kuzatish, tahlil qilish va rejalashtirish o'qituvchining boshqaruv funksiyalariga kiradi. Har bir o'quvchining yutuq va kamchiliklari asosida maqsadli boshqaruv choralari ishlab chiqilishi lozim. Dars jadvali, tarbiyaviy ishlar, ota-onalar bilan aloqa bir butun boshqaruv tizimi sifatida qaralishi zarur. O'quvchilar orasida kichik liderlarni (masalan: fan sardorlari) tayinlash orqali sinfni o'z-o'zini boshqarishga o'rgatish mumkin. O'zbekistonning ta'lim siyosatida (2020–2030 strategiyasi) innovatsion ta'limga o'tish ustuvor vazifalardan biridir. Finlandiya, Yaponiya, Singapur tajribalarida bolaga yo'naltirilgan va stresssiz boshqaruv asosiy o'rinda turadi. Milliy qadriyatlarni innovatsion uslublar bilan uyg'unlashtirish orqali barkamol avlod tarbiyasi amalga oshiriladi. Darslarda Avloniy, Fitrat, Behbudiy asarlaridan foydalanish milliy g'urur va axloqiy muhitni mustahkamlaydi. Innovatsion boshqaruv — bu nafaqat texnologiya, balki yangi fikrlash madaniyatidir. Innovatsion boshqaruvning markazida — o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish g'oyasi turadi. Har bir o'qituvchi o'zini innovator sifatida ko'rishi va doimiy o'rganishga tayyor bo'lishi zarur. Raqamli avlod o'qituvchisining asosiy vazifasi — texnologiya va qadriyatlarni uyg'unlashtira olishidir. Faol, ijodiy, emotsional jihatdan boy sinf muhitini yaratish o'qituvchining boshqaruv madaniyatiga bog'liq. Innovatsion boshqaruv — bu o'zgarishga ochiqlik, yangilikdan cho'chimaslik va har bir o'quvchi uchun imkoniyat yaratish demakdir.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Xulosa: Innovatsion boshqaruv sinfni nafaqat o'qitish, balki tarbiyalashning ham samarali usulidir. O'qituvchining rahbarlik qobiliyati sinf iqlimi va dars natijalariga bevosita ta'sir qiladi. O'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida ko'rish boshqaruvda motivatsiyani kuchaytiradi. Har bir darsda kichik innovatsion o'zgarish bo'lsa ham, bu sifatli o'zgarishlarga olib keladi. O'qituvchi boshqaruvda ochiqlik, adolat va mulohazalilik tamoyillariga asoslanishi lozim. Darsda ishlatiladigan vositalar (slyaydlar, video, real obyektlar) boshqaruv quroliga aylanadi. O'qituvchining nutq madaniyati sinfda tartib va e'tibor darajasiga ta'sir qiladi. Innovatsion rahbar — bu yangilikka ochiq, tanqidni qabul qiluvchi, o'rganishga tayyor o'qituvchidir. Kichik sinflarda boshqaruvda ko'proq hissiy yondashuv va sabr muhim ahamiyatga ega. Guruhda ishlashni yo'lga qo'ygan o'qituvchi sinfni o'zaro yordam madaniyatiga o'rgatadi. Baholash mexanizmi (formativ yoki summativ) o'quvchini anglash va boshqarishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar yordamida darsdan tashqari ham o'quvchilarni boshqarish mumkin. O'qituvchi darsdan tashqari faoliyatni rejalashtirish orqali sinfga innovatsion muhit yaratadi. Ota-onalarni jalb qilish sinf boshqaruvida qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy resursdir. Ijodiy topshiriqlar orqali bolalar o'z fikrini erkin ifoda qilishni o'rganadilar — bu ham boshqaruvdir. Vizual materiallar (grafik, jadval, rasm) orqali ma'lumot berish boshqaruvni qulaylashtiradi. Har bir darsdan so'ng o'qituvchining o'zi tahlil qilish odati — boshqaruvni tahliliy bosqichidir. Sinfda o'quvchilar ovozini eshitish, ularning takliflarini inobatga olish — demokratik boshqaruv belgisidir. Innovatsion boshqaruv uchun o'qituvchi doimiy ravishda seminar, trening va o'quv kurslarida qatnashishi zarur. Innovatsion boshqaruv — bu shunchaki yangicha metod emas, balki yangi tafakkur uslubidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hasanboyeva O. Innovatsion ta'lim texnologiyalari asoslari. — T.: TDPU nashriyoti, 2020.
2. Hargreaves, A., & Shirley, D. (2009). The Fourth Way: The Inspiring Future for Educational Change. — Corwin Press.
3. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. — Teachers College Record.
4. UNESCO (2020). ICT Competency Framework for Teachers.

